
Zamonaviy maktabda tinglovchilar uchun barcha sharoitlar yaratilgan "Tabassum" mahalla fuqarolar yig'inida Ma'murjon G'ofurov rahbarligidagi avtomaktab o'z faoliyatini olib bormoqda. Yangi, zamonaviy jihozlangan, barcha sharoitlarga ega maktabda bir paytning o'zida 100 o'quvchining o'qitishga mo'ljallangan. Har bir o'quvchi haydovchilik guvohnomasini olish uchun 4.5 oy mobaynida o'qitiladi. O'quvchilarda yaxshi ko'nikma hosil qilish uchun amaliyot jarayonlari ham tashkil etiladi.

Bugungi kunda avtomaktabda 10 nafar ishchilar faoliyat olib borishmoqda. Barcha ustozlar malakali kadrlar xisoblanib, Ichki Ishlar vazirligi akademiyasida tahsil olishib, malaka oshirib kelishgan. Kadrlar salohiyati yuqori bo'lgan joyda ish sifati ham o'sib boradi.

Zamonaviy o'quv-qurollari, elektron o'quv darsliklardan foydalaniladi. Avtomaktab tomonidan o'quvchilarni "B" toifasiga o'qitish uchun 5 ta yengil avtomashinalar ham mavjud. Amaliy mashg'ulotlar avtodromda, keyinchalik kam qatnovli yo'llarda olib boriladi. Yakuniy test jarayonlarini muvaffaqiyatli yakunlagan o'quvchilarga haydovchilik guvohnomasi topshiriladi.

2023-10-26 19:32:12